


9-dars. Sonlarni (31 + 9) ko'rinishda qo'shish



1. Rasmdan foydalanib, 31 bilan 9 ning yig'indisi qanday topilganini o'rganing. Xulosa chiqaring.



10 birl. = 1 o'nl.

3 o'nl. 1 birl. + 9 birl. = 3 o'nl. 10 birl. = 4 o'nl.



Agar ikki sonni qo'shishda birliklar yig'indisi 10 ga teng bo'lsa, bu 10 birlik 1 o'nlilik sifatida o'nliliklar xonasiga qo'shiladi.



2. Misollarni yuqoridagi namuna bo'yicha yeching.

$62 + 8$

$37 + 3$

$41 + 9$

$53 + 7$

$14 + 6$



3. Ifodalarni yozing va ularning qiymatini hisoblang.

87 va 9 sonlari yig'indisi

K

82 sonini 8 taga orttirilgani

L

46 va 4 sonlari yig'indisi

A

35 va 5 sonlari yig'indisi

L

71 soniga 9 soni qo'shilgani

Y

96 va 5 sonlari ayirmasi

A



Javoblarni o'sish tartibida joylashtiring.
Qanday so'z hosil bo'ldi?



4. Jasur ma'ruza uchun 31 ta qora va ulardan 9 ta ko'p oq laylak fotosuratini topdi. U jami nechta fotosurat topgan?



5. Masalani yeching.

38 ta		
laylaklar	to'rg'aylar	turnalar
9 ta	?	21 ta



6. Hisoblang. Faqat **yaxlit** natijalarni **kamayish** tartibida yozing. Mos harflarni qo'yib, Afrika laylagi qanday nomlanishini bilib oling.

A	$75 + 5$	B	$34 + 6$
I	$38 + 1$	K	$92 + 5$
A	$43 + 7$	M	$81 + 9$
U	$27 + 3$	R	$56 + 4$




7. Laylaklar uyning tomiga in qurishdi. Tom to'g'ri to'rtburchak shaklida. Uning eni 13 metr, uzunligi esa enidan 7 metr katta. Tomning perimetrini toping.



8. Rangli katakchalarga

23 **14** **37** **54** **45** **31**

sonlarini shunday joylashtiringki, natijada bir xil rangli katakchalardagi sonlar yig'indisi 68 ga teng bo'lsin.



9. Kamil laylaklarning qanday in qurayotganini kuzatdi. U 46 ta yo'g'on va ulardan 4 ta ko'p ingichka shoxlarni sanadi. Laylaklar jami nechta shox olib kelishgan?

10. Ifodalarni yozing. Ularning qiymatini hisoblang:

- a) 46 va 4 sonlarini qo'shish;
- b) 73 sonini 7 taga orttirish;
- d) 42 soniga 8 sonini qo'shish;
- e) 51 va 9 sonlari yig'indisini topish.

